O‘ZBEKISTON QISHLOQ VA SUV XO‘JALIGI

ISSN 2181-502X

Maxsus son [1]. 2023

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI RIVOJLANTIRISH DAVLAT QO‘MITASI
VETERINARIYA MEDITSINASI CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
SAMARQAND DAVLAT
DEVONXONA



ер, сув, ва ишчи кучи ресурслари доирасида максимал фойда олиши учун яйловларда қайси чорва туридан қанча миқдорда боқиш кераклигини аниқлаб беради.

Ҳар қандай фойдаланувчи тизимдан фойдаланиш учун интернет ва ахборот технологиялари воситалари (смартфон, компьютер)га эга бўлиши талаб қилинади. Тизимга кириш эркин, ҳеч қандай тўсиқ, рўйхатдан ўтиш каби шартлар мавжуд эмас, яъни исталган одам хоҳлаган пайтида тизимга кириб, унинг хизматидан фойдаланиш имкониятига эга.

Платформани интернетда жойлаш учун Ўзбекистон Республикаси uz домен зонасида leip.uz домени расмийлаштирилган бўлиб махсус серверда жойлашитирилган. Платформа исталган категориядаги фойдаланувчилар фойдаланиши мумкин. Бунинг учун ундан фойдаланишда ҳеч қандай чекловлар қўйилмаган. Шунингдек, фойдаланувчиларнинг хавфсизлигини таъминлаш мақсадида https протоколи орқали уланиш таъминланган ва SSL сертификати ўрнатилган [5].

Яйловларда чорвачиликни ривожлантиришда мавжуд ресурслардан оптимал фойдаланишни таъминлаш учун таклиф қилинаётган платформа соддалиги ва оддийлиги билан бошқа дастурлардан фарқ қилади. Бунда фойдаланувчидан оддийгина учта маълумотни киритиш талаб қилинади ва унинг оптимал чорва таркиби ҳисоблаб берилади. Шунингдек, платформа ёрдамида олинган натижалардан хўжалик фаолиятини истиқболли йўналишларини аниқлаш ҳамда даромадни янада ошириш учун қайси ресурслар миқдорини ошириш лозимлиги бўйича хулосалар чиқаришда ҳам фойдаланиш мумкин ва чорвачиликни ривожлантиришда муҳим восита бўлиб хизмат қилади.

Сабит ГАББАРОВ,
Нукус кончилик институти Ижтимоий ва гуманитар фанлар кафедраси катта ўқитувчиси.

АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 8 февралдаги “Ўзбекистон Республикасида чорвачилик соҳаси ва унинг тармоқларини ривожлантириш бўйича 2022-2026 йилларга мўлжалланган дастурни тасдиқлаш тўғрисида”ги ПҚ-120-сон Қарори.
2. Нарбаев Ш.К. Обоснование размеров производственных кооперативов пастбищепользователей. Журнал “Ирригация и мелиорация”. №2(8). 2017. Стр. 63-65
3. Проектирование баз данных. Учебное пособие для вузов. / Н.Н.Гринченко и др. - М.: РиС, 2013. - 240 с.
4. Аграр тармоқда ташқи самараларни оптимал тартиблаштириш ва трансакция харажатларини пасайтириш: муаммолар, усуллар ва моделлар. Сауханов Ж.К., (Монография) Т.: “Lesson Press” МЧЖ нашриёти, 2022. 269 б.
5. Проектирование баз данных. Просто как дважды два / Ю.А. Шпак. - М.: Эксмо, 2007. - 304 с.

UO‘T:
633.2

CHO‘L-YAYLOV CHORVACHILIGI QUYI MAJMUASI RIVOJLANISHINING TENDENSIYALARI (HOZIRGI HOLATI)

Annotatsiya. *Respublikada qorako‘lchilik sohasining rivojlanish dinamikasi, sohada erishilgan natijalarning statistik ko‘rsatkichlari, sohaning o‘ziga xos jihatlari hamda sohani ustuvor rivojlanishining asosiy yo’nalishlari tadqiq qilingan. Maqolada qorako‘lchilik mahsulotlarini yanada ko‘paytirish, muammolarni hal qilish yo‘llari yuzasidan amaliy tavsiya va takliflar keltirilgan.*

Аннотация. *Изучена динамика развития животноводства в республике, статистические показатели достигнутых в отрасли результатов, особенности отрасли, основные направления опережающего развития отрасли. Статья содержит практические рекомендации и предложения по путям увеличения продуктивности животноводства и решения проблем.*

Abstract. *The dynamics of the development of animal husbandry in the republic, the statistical indicators of the results achieved in the industry, the features of the industry, the main directions of the advanced development of the industry have been studied. The article contains practical recommendations and suggestions on how to increase the productivity of animal husbandry and solve problems.*

Cho‘l-yaylov chorvachiligi (qorako’lchilik, echkichilik, tuyachilik, yilqichilik, qoramolchilik) mamlakatimiz qishloq xo‘jaligining asosiy tarmog‘i hisoblanib, respublikaning 20,6 mln. ga yer resurslarini egallagan hudud hisoblanadi. Cho‘l-yaylov chorvachiligi cho‘l aholisining oziq-ovqatga, yengil sanoatni xom-ashyoga bo‘lgan talabini qondirishdamuhim ahamiyatga ega. Hudud chorvachiligining, xususan, qo‘ychilikning asosiy ozuqa bazasi yaylov hisoblanadi. Bugungi kungacha yaylov maydonlari biriktirib berilmaganligiga qaramasdan, 18091,9 ming bosh *1-jadval* **Respublikada xo‘jalik yurituvchi shakllari bo‘yicha chorvachilik mahsulotlari qiymati va uning tarkibi**

T/r	Xo‘jalik yuritish shakllari	2017 yil		2021 yil		2021 yil 2017 yilga nisbatan, %
		mlrd so‘m	%	mlrd so ‘m	%	
1	Barcha toifadagi xo‘jaliklar	64895,9	100,0	126198,5	100,0	194,5
	Shu jumladan:					

ADABIYOTLAR

1. Asqarov N. Ko‘p tarmoqli fermer xo’jaliklarining rivojalntirish bo’yicha xorij tajribalari va ulardan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari. “O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi” J. 2016 yil, 10-son. 45-b.

son, 2015.

41-42-b.

3. Tangirov A.E., Cho‘l-yaylov chorvachiligida xo‘jalik yuritish shakllari. // AGRO ILM, №2-son, 2016. 25-27-b.

4. Mamatov M. Qishloq infratuzilma korxonalarini innovatsion rivojlantirish masalalari. “O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi” J. №2, 2016. 44-b.

5. O‘zbekiston qishloq xo‘jalik statistikasi to‘plami. Toshkent-2021.

Chorvachilik maxsulotlarining asosiy qismini respublikada dehqon xo’jaliklari yetishtirayotgan bo‘lsa-da, hanuzgacha ularga yaylovlar ajratilib berilmagan. Cho‘l-yaylov chorvachiligi mahsulotlarini yetishtirish dehqon, fermer xo’jaliklari va qishloq xo’jalik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda amalga oshirilmoqda. Mayda shoxli mollarning asosiy qismi dehqon xo‘jaliklarida parvarishlanmoqda.

2021 yilda yirik shoxli qoramollarning 92,5 foizi, qo’y va echkilarning 80,6 foizi, cho‘chqalarning 65,8 foizi, parrandalarning 58,1 foizi hamda otlarning 74,0 foizi dehqon xo’jaliklarida parvarish qilinmoqda. O’rganilayotgan davrda qo’y va echkilar bosh soni respublikamizda 6,1 foizga ko’payib, 21906,99 ming boshga yetgan. Mayda shoxli mollarning 80,6 foizi yoki 18091,3 ming boshi dehqon xo‘jaliklarida, fermer xo‘jaliklarida 13,5 foizi yoki 3032,2 ming boshi va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalarida 5,9 foizi yoki 1335,3 ming boshi boqilmoqda.

Respublikda yetishtirilayotgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarining 68,0 foizi dehqon xo‘jaliklari, 27,8 foizi fermer xo‘jaliklari qolgan 4,2 foizi esa qishloq xo‘jalik korxonalari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Dehqon xo‘jaliklarida tayyorlanayotgan maxsulotlarning 48,5 foizini chorvachilik maxsulotlari tashkil etmoqda. 92,4 foizi chorvachilik mahsulotlari respublikada dehqon xo‘jaliklari, 4,4 foizi fermer xo‘jaliklari va 3,2 foizi esa qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda (1-jadval)

Respublika qishloq xo‘jaligi taraqqiyoti mulk va xo‘jalik yuritish nuqtai nazaridan dehqon xo‘jaliklarining rivojlanishiga ko‘p jihatdan bog‘liq ekan.

2-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, dehqon va fermer xo‘jaliklarida hamda respublikamiz bo‘yicha chorvachilik maxsulotlarini ishlab chiqarish

ko‘paygan bo‘lsada, Qishloq xo‘jaligi faoliyatini

Mahsulotlari turi	2017	2018	2019	2020	2017 yilga nisbatan, %
Barcha toifadagi xo’jaliklar					
Go‘sht (tirik vaznda)	22866,8	2430,5	2473,6	2519,6	110,2
Sut	10047,9	10466,4	10714,3	10976,9	109,2
Tuxum mln. dona	6332,7	7459,3	7771,2	7781,2	122,9
Jun (fizik vaznda)	36,4	34,6	35,1	35,4	97,3
Qorako’l teri, ming dona	1075,1	1085,2	1150,7	1152,1	107,2
Pilla	12,5	9	21,4	20,9	167,2
Fermer xo’jaliklari					
Go‘sht (tirik vaznda)	63,9	109,5	125,7	112,2	161,9
Sut	337,7	397,3	462,0	519,8	153,9
Tuxum, mln. dona	695,3	1079,5	1142,8	1048,9	214,1
Jun (fizik vaznda)	2,2	2,8	3,2	3,7	168,1
Qorako‘l teri, ming dona	59,8	85,6	91,4	103,8	173,4
Pilla	11,4	14,3	15,7	13,5	118,4
Dehqon xo’jaliklari					
Go‘sht (tirik vaznda)	2145,9	2236,5	2230,9	2302,7	107,3
Sut	9641,8	9995,8	10156,5	10372,2	107,6
Tuxum (mln. dona)	4020,8	4335,1	4491,6	4817,9	119,8
Jun (fizik vaznda)	32,4	30,5	30,5	30,1	92,9
Qorako‘l teri, ming dona	906,2	904,4	975,4	966,2	106,6
Pilla	-	-	-	-	-
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalarida					
Go‘sht (tirik vaznda)	71,6	84,5	117,0	104,7	146,2
Sut	68,4	73,3	95,8	84,9	124,1
Tuxum mln. dona	1616,6	2044,7	2136,8	1914,4	118,4
Jun (fizik vaznda)	1,8	1,3	1,4	1,6	88,9
Qorako’l teri, ming dona	109,1	95,2	83,9	82,1	75,3
Pilla	1,1	3,6	5,7	7,4	962,7

a	Fermer xo‘jaliklari	19014,5	29,5	35063,2	27,8	184,3
b	Dehqon xo‘jaliklari	44388,8	68,4	85815,0	68,0	193,3
v	Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalarida	1492,6	2,3	5304,8	4,2	355,1

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida

amalga oshiruvchi korxonalarida jun va qorako‘l teri yetishtirish mos ravishda 11,1 va 24,7 foizga kamaygan. Shuni alohida ta’kidlash joizki, mamlakatda chorvachilik mahsulotlarining 90 foizidan ko‘prog‘ini dehqon xo‘jaliklari yetishtirib bermoqda.

Respublikada yetishtirilayotgan go‘shtning 91,4 foizini, sutning 94,5 foizini, junning 85,0 foizini, qorako‘l terining 83,9 foizini va tuxumning 61,9 foizini dehqon xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilmoqda. Mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan go‘shtning

atigi

2,7 foizi, junning 4,5 va qorakoʻl terining 7,1 foizi qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi ixtisoslashgan korxonalari hissasiga toʻgʻri kelmoqda. Oʻzbekiston choʻl-yaylov chorvachiligi choʻl aholisining oziq-ovqatga, yengil sanoatni xomashyoga boʻlgan talabini qondirishda muhim ahamiyat kasb etib, asosan, xomashyo yetkazib beruvchi baza hisoblanadi.

Abduxolik TANGIROV,
Sam ISI dotsenti, i. f. n.,

Sherzod NURMANOV,
Sam DVMCHBU assisteni ti.